

TA'LIM TERMINLARINING KONNOTATIV VA FUNKSIONAL FARQLARI: O'ZBEK VA NEMIS TILLARI QIYOSIDA

Astonova Go'zalxon Raxmonaliyevna

Farg'ona davlat uniuersiteti o'qituvchisi

E-mail: gozalxonastonova@gmail.com +998916618583

ORCID ID: 0009-0000-1845-421X

Karbozova Gulnara Kusimbekovna

M. Auvezov nomli JQU, filologiya fanlari kandidati, dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541463>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi o'zbek va nemis tillaridagi ta'lim sohasiga oid terminlarning qiyosiy-semantik, lingvomadaniy va kognitiv xususiyatlari tadqiq etilgan. Maqolada har ikki tilning o'ziga xos ta'lim tizimi, tarixiy tajribasi va milliy qadriyatlarini terminologiya shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. Terminlarning denotativ jihatdan o'xshash bo'lsa-da, konnotativ, funksional va madaniy jihatdan farqlanishi konkret misollar (masalan, Bildung, Erziehung, ustoz, o'qituvchi) orqali asoslangan.

Abstract: This abstract explores the comparative-semantic, linguacultural, and cognitive characteristics of educational terminology in the Uzbek and German languages based on the text from The paper highlights the impact of each language's specific educational system, historical experience, and national values on the formation of terminology. Through concrete examples (such as Bildung, Erziehung, ustoz, o'qituvchi), it demonstrates that while many terms share denotative similarities, they significantly diverge in their connotative, functional, and cultural dimensions.

Аннотация: В данных тезисах исследуются сравнительно-семантические, лингвокультурные и когнитивные особенности терминов сферы образования в узбекском и немецком языках. В работе освещается влияние уникальных систем образования, исторического опыта и национальных ценностей обеих лингвокультур на формирование терминологии. На конкретных примерах (например, Bildung, Erziehung, ustoz, o'qituvchi) обосновывается, что, несмотря на денотативное сходство, термины существенно различаются в коннотативном, функциональном и культурном аспектах.

Kalit so'zlar: ta'lim terminologiyasi, qiyosiy-semantik tahlil, lingvomadaniy konnotatsiya, kognitiv tilshunoslik, konseptual model, freym, o'zbek tili, nemis tili.

Keywords: educational terminology, comparative-semantic analysis, linguacultural connotation, cognitive linguistics, conceptual model, frame, Uzbek language, German language.

Ключевые слова: образовательная терминология, сравнительно-семантический анализ, лингвокультурная коннотация, когнитивная лингвистика, концептуальная модель, фрейм, узбекский язык, немецкий язык.

O'zbek va nemis tilshunosligida ta'lim sohasiga oid terminlar, leksik birliklar tizimi tilga xos semantik xususiyatlar, tuzilma, qo'llanish doirasi va madaniy kodlar orqali shakllanadi. Har bir til o'z ta'lim tizimi va tarixiy tajribasiga asoslanib, o'ziga xos terminologiyani ishlab chiqqan bo'lib, bu terminlar faqat leksik birliklar emas, balki ma'naviy-mafkuraviy yondashuvlarning ham ko'zguvidir. Shu sababli ikki tildagi asosiy ta'lim terminlarining qiyosiy semantik tahlili ularning faqat grammatik yoki struktur jihatlarigina emas, balki tushunchaviy va funksional jihatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

O‘zbek tilidagi “ta’lim”, “tarbiya”, “dars”, “o‘qituvchi”, “o‘quvchi/talaba”, “darslik”, “bilim darajasi”, “baholash mezon”, “o‘quv dasturi” kabi terminlar asosan XX asr (sovet davri) ta’lim konsepsiyasidan meros qolgan bo‘lib, keyinchalik milliy ma’naviy qadriyatlar asosida qayta shakllantirildi. Bu terminlar soddaligi va madaniy ma’no yuklanganligi bilan ajralib turadi. Ular zamonaviy o‘zbek pedagogikasining asosiy tushunchaviy doirasini tashkil etadi. Shu bilan birga, bu birliklar ko‘pincha emotsional va baholovchi konnotatsiyaga ega. Nemis tilidagi asosiy ta’lim terminlari – *Bildung, Erziehung, Lehrkraft, Curriculum, Kompetenz, Bewertung, Lernziel* – semantik jihatdan yuqori darajada ixtisoslashgan bo‘lib, ularning ta’riflari ko‘pincha qonuniy me’yorlar va milliy ta’lim standartlari bilan mustahkamlangan. Masalan, *Bildung* so‘zining semantik hajmi o‘zbek tilidagi “ta’lim” so‘zidan kengroq bo‘lib, unda intellektual rivojlanish, estetik tarbiya, ijtimoiy mas’uliyat, shaxsiy muvozanat kabi komponentlar mujassam (1.2.1-jadvalga qarang). Shu sababli *Bildung* o‘zbek tiliga “kompleks shaxs rivoji” sifatida tarjima qilinsa ham, u “ta’lim” bilan to‘liq qamrab olinmaydi.[1]

1.2.1-jadval.

Qiyoslanayotgan tillar kesimida ta’lim terminlari

Nemis tilida	O‘zbek tilida	Izoh
Bildung	Ta’lim, bilim olish, shakllanish, kompleks shaxs rivoji	Shaxsning intellektual va madaniy rivojlanish jarayoni
Erziehung	Tarbiya, tarbiyalash	Axloqiy, ijtimoiy qadriyatlar asosida shaxsni shakllantirish
Lehrkraft	O‘qituvchi, pedagog	Dars beruvchi mutaxassis
Curriculum	O‘quv reja, dastur	O‘quv yili davomida o‘rganiladigan fanlar va mavzular rejasi
Kompetenz	Kompetensiya, ko‘nikma, malaka	Bilimni amalda qo‘llay olish qobiliyati
Bewertung	Baholash	O‘quvchi faoliyati yoki natijasini aniqlash va baholash jarayoni
Lernziel	O‘quv maqsadi	O‘quv jarayonida erishilishi kerak bo‘lgan natija yoki bilim

Qiyosiy semantik tahlil davomida aniqlanishicha, ko‘plab terminlar ikki tilda denotativ jihatdan o‘xshash bo‘lsa-da, konnotativ va funksional jihatdan farq qiladi. Masalan, “baholash mezon” va *Bewertungskriterien* terminlari har ikki tilda o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlovchi vosita sifatida ishlatiladi. Biroq, o‘zbek tilida bu termin ko‘proq raqamli baho bilan bog‘liq bo‘lsa, nemis tilida u sifat ko‘rsatkichlari (kompetensiya, yondashuv, ishtirok/qamrov) asosida tuziladi. Yana bir misol: o‘zbek tilidagi “o‘qituvchi” tushunchasi, ko‘pincha axloqiy va ijtimoiy rol (tarbiyachi, yo‘lboshchi, maslahatchi) bilan boyitilgan. Nemis tilidagi *Lehrkraft* esa professional roldan kelib chiqib, asosan bilim beruvchi funksiyaga e’tibor qaratadi.[2]

Shuningdek, o‘zbek tilida “dars” tushunchasi odatda “vazifadorlik”, “intizom”, “mustahkamlash” kabi semantik elementlar bilan bog‘lansa, nemis tilidagi *Unterricht* – bu jarayon, ya’ni ta’lim oluvchining bilimi, o‘qituvchining faoliyati va o‘quv vositalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani anglatuvchi tizimli kategoriya sifatida qaraladi.[3] Bu farq ikki xalqning pedagogik yondashuvi va tarixiy ta’lim modeli bilan bevosita bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda nemis tilshunosligida ta’lim terminlarini kognitiv va konseptual tahlil qilish usuli qo‘llanmoqda. Bu usulga ko‘ra, har bir termin ortida konseptual model (frame/freym) yotadi va u til foydalanuvchisi uchun qanday ma’lumot strukturasi bildirishi tahlil qilinadi. O‘zbek tilshunosligida ham bu kabi yondashuvni ba’zi tadqiqotlar, jumladan, G.Isakova va G.Qurbonov asarlarida ayrim terminlarning metaforik va obrazli tahlilini kuzatish mumkin.[4]

O‘zbek va nemis tillarida ta’limga oid leksik hamda lug‘aviy birliklar, terminologiya emantic jihatdan muhim o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, ularning konnotativ, diskursiv va madaniy xususiyatlari keskin farq qiladi. Bu esa qiyosiy tilshunoslik va lingvodidaktik tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- 1.Koller H.-C. Bildung. – Wiesbaden: Springer VS, 2012. – S.190.
2. Reusser K. Lehrerrolle und Unterrichtsgestaltung // Zeitschrift für Pädagogik. – 2011. – № 57 (2). – S.112-130.
3. Terhart E. Grundbegriffe der Schulpädagogik. – Stuttgart: Kohlhammer, 2008. – S.210.

Isaqova G. Ta’lim va tarbiyaga oid qanotli iboralar // Interpretation and Researches. – 2024. – 18 февр.
<https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2072>